

**ZAMONAVIY O'QITUVCHILARDA KASBIY-AXLOQIY SIFATLARNI
SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI**

Sh.Kenjayev GulDU dotsenti

Yangi O'zbekistonda zamonaviy o'qituvchi shaxsining kasbiy sifatlarini shakllantirishga bo'lgan talab davlat va jamiyat talabidan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda. Bugungi kun talabidan kelib chiqib, yosh avlodni barkamol etib shakllantiruvchi, o'z kasbini mehr-muhabbat bilan ardoqlovchi, kasb mahoratiga ega, yangi pedagogik texnologiya yutuqlari bilan qurollangan malakali pedagoglarni tarbiyalashda quyidagi amaliy tavsiyalarga riosa qilish muhimdir:

-har bir talaba o'z kasbiy vazifasini oila, bog'cha va mакtabda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat bilan bog'liqligini his qilgan holda unga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish;

-o'zining pedagogik faoliyati jarayonida bola shaxsini shakllantirish uchun nazariya va amaliyot birligini ta'minlay olish;

-talabaning amaliyot jarayonlari orqali kelgusi faoliyat obyekti bilan bog'liqligini kuchaytirishi uchun bevosita munosabatni o'rnatish;

-talabalar egallashi lozim bo'lgan kasbga sodiqligi, qiziqishi va unga bo'lgan munosabati shu faoliyatining o'sib borayotgan muvaffaqiyatini ta'minlashi;

-oliy ta'lim muassasalaridagi labaratoriylari va amaliy mashg'ulotlarida fanlarni kompleks o'rganish san'atini egallah;

-talabalari doimo o'z ustida ishlashga o'rgatishi ilmiy va uslubiy tavsiyalar berishi yangi pedagogik texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish tajribalar va yangiliklarni amalga tatbiq etishi zarur.

Bo'lajak pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda talabalarni muomala madaniyatiga o'rgatish muhim zaruriyatlardan biridir. Chunki u insonning inson tamonidan idrok qilinishi mexanizmlarini ijtimoiy hayotda qo'llash; shaxslararo munosabatni maqsadga muvofiq amalga oshirish; kommunikatsiya shakllaridan turli vaziyatlarda to'g'ri foydalanish; o'zaro ta'sir o'tkazuvchi vositalarni amaliyotga tatbiq etish; mojarali vaziyatlarning oldini olish, o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi aloqani o'rnatish; bir-birlarini tushunish; muomala jarayonida talaba bilan o'qituvchi o'rtasida axborot uzatish va axborot almashish, o'qituvchi bilan talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini o'rnatish imkonini beradi. Buning uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayonida talaba va o'qituvchi o'rtasidagi oraliq masofani kamaytirish, o'zaro yaqinlik samimiylik, ishonch tuyg'usini vujudga keltirish lozim.

Shuningdek yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga alohida e'tibor berish lozim. Bola tarbiyasi va kamolotida ham o'zbek xalqining o'ziga xos, uzoq tarix tajribasi sinovidan o'tgan ajoyib an'analari bor. Bolalarning axloq va odobi o'zbekona tarbiyaning mahsulidir. Xalqimizning tarbiya borasidagi yetuk milliy ma'naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi. Chunki xalqimizda homilador ayollarning tibbiy-ma'rifiy, tarbiyaviy tomonlariga azaldan alohida e'tibor qaratib kelinadi. Bu o'rinda mahalla, ota-onalar va bolalarning ma'naviy tarbiyaviy munosabatlarini tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi. Insonning ma'naviy boyliklari, axloq-odob me'yorlarining shakllanishi va rivojlanishi, ta'lim-tarbiyaning yangi usullari, turli- tuman jihatlarini yuzaga kelishi, jamiyat taraqqiyotining bir-biri bilan uzviy bog'langan halqalaridir. Bu zanjirlarning biror halqasini uzilishi ta'lim-tarbiya ishining muayyan imkoniyatlarini yo'qotishga olib keladi. Inson o'z tabiatiga noloyiq holda emas, balki unga munosib bo'lib yashashi lozim. Shunday ekan, inson tabiatи tushunchasi ham, xulq-axloq tushunchasi ham insonning yashashdan asl maqsadi nima?-degan masala yechimi bilan bevosita bog'liqdir. Xalqimiz shuurida insonning yashashidan asl maqsadi ezgu ishlar





qilib, munosib farzandlar tarbiyalab, yaxshi nom qoldirishdir, degan javob mavjud. Bu g'oya asosida ma'naviyatni insonning ezgulikka yo'naltirilgan maqsadlariga erishish borasida xizmat qiladigan orzu-havaslari, aql-zakovati, bilimlari amaliy faoliyati zamirida yotgan irodasi deyish mumkin.

Ma'naviyat insonning asl tabiatini uning ijtimoiyligini va shaxs sifatidagi individualligini mustahkamlashga, aqliy va ruhiy dunyosini tarbiyalashga, kamol toptirishga, ijodiy va buniyodkorlik imkoniyatlarini yuksaltirishga, jamiyatning madaniy merosini boyitishga xizmat qiladi. Uning o'zi ham aynan o'sha narsalardan shakllanadi. Shunday ekan barcha jamiyatlarda ham inson va uning har tomonlama ma'naviy kamoloti masalasi o'sha jamiyatning eng muhim masalasi bo'lib kelgan. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o'z asarlaridan birida yozadi: "Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda, axloq-ma'naviyatning o'zagi". Inson axloqi shunchaki salom-alik, xush muomaladangina iborat emas, axloq bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbi haromdan xazar, nopoliklikka,adolatsizlikka nisbatan murosasiz bo'lishi kerak.

Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish milliy va umuminsoniy qadriyatlarning barcha imkoniyatlaridan to'la va samarali foydalanishni taqozo qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida boshqa xalqlar merosining ijobjiy tomonlaridan qanchalik foydalanmaylik baribir o'zbek milliy qadriyatlari ma'naviy kamolotimizning asosi bo'lib qoladi. Bu borada xalq pedagogikasining an'analari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu an'analar uzoq davr davomida rivojlanib, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'ylar ham tarbiyalaydi, - degan an'anaga aylangan. Yoshlarni ma'naviy qiyofasini shakllanishiga hamma davrda ham atrof-muhit katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Ta'lim-tarbiya ishlarida Muhammad Payg'ambarning hadislaridan ham keng

foydalanish lozim. Hadislarda ma'naviy-axloqiy kamolotning barcha diniy muammolari bilan bir qatorda, umumbashariy masalalarga ham katta o'rin berilgan. Afsuski, shu vaqtga qadar ta'lim-tarbiya ishlarida xalqning boy pedagogik merosidan, Qur'oni karim, hadislar va shar'iy hukmlarda ilgari surilgan g'oyalardan to'la foydalana olganimiz yo'q. Aslida bular inson ma'naviy kamolotining hamma davrlari uchun ham ahamiyatli bo'lib qoladigan zaminlaridir.

Shaxsni komil inson qilib tarbiyalashdagi vositalar bugungi kunda aynan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Tarbiya tizimida quyidagi axloqiy fazilatlar tizimi mavjudki, ma'naviy kamolot sohasida ham asosiy maqsad o'sha fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Uni quyidagicha tasniflash mumkin. Axloqiy fazilatlar: aqliy, axloqiy, madaniy, jismoniy fazilatlarga bo'linadi.

Demak o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan asosiy vazifalardan birini, bo'lajak pedagog o'qituvchilarni pedagogik faoliyatiga tayyorlashda yoshlarda milliy istiqlol g'oyasi, his-tuyg'u, xarakter, o'zlikni anglashni shakllantirish, ma'naviyat va qadriyat uyg'unligi, o'zbek xalqining milliy an'analari, urfatlarining o'rganilishi muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak pedagog o'qituvchi hech qachon oliy ta'lim muassasalarida olgan bilimidek bilimni boshqa joyda egallashi mumkin emasligini his qilishi va bu imkoniyatdan doimo oqilona foydalanishi lozim ekanligini tushinishi kerak. Yosh bo'lg'usi pedagoglar o'z mahoratini oshirish, malaka va ko'nikmalarini hosil qilishi uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilishi lozim:

-talaba, bo'lajak pedagog o'qituvchi bolaga ta'lim tarbiya berishda uning individual va yosh xususiyatlarini doimo diqqat-e'tiborida tutishni mashq qilishi.

-ta'lim jarayonining murakkabligini hisobga olgan holda ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi maqsadlarini anglagan holda ish ko'rishi.

-darsning, o'quv mashg'ulotlarining tuzilishi uning mazmuni bilan mos bo'lishi va unda o'qituvchilarga emotsiyonal ta'sir ko'rsatishni diqqat markazida tutishi.

-darsni sifatli va mazmuni, qiziqarli va sodda tashkil etishga ta'sir qiladigan interfaol usulini (munozara, aqliy hujum, ko'rgazmalilik...), tanlash va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

-o'quvchiga nisbatan talabchan bo'lish bilan birga talabchanlik me'yoriga rioya qilgan holda, ularga amal qilishi va samimiy munosabatni yodda tutishi.

-o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish choralarini ko'rishi hamda mustaqil va ijodiy tafakkurini shakllantirib berishi.

-ta'limda muammoli vaziyatni vujudga keltirishi va o'quvchilar qiziqishi, intellektual saviyasi faolligini oshirishi.

-tanlangan kasbning kasbiy layoqatini faollashtirish, mukammalashtirishga qaratilgan oliy maktab ta'limi tizimidan tashqari chiquvchi faoliyatda (turli olimpiadalarda, ko'rik-

-tanlovlarda, sport musobaqalarida, intellektual o'yinlarda) faol ishtirok etishi.

-o'zi tanlagan kasbi vazifasiga samimiy munosabatda bo'lishi, ish faoliyati jarayonidagi kichik muvoffaqiyatlardan mamnunlik his etish, ularga erishish uchun bor imkoniyatlarini ishga solishni odat qilib olish bo'lajak pedagog o'qituvchilarda pedagogik qobiliyat va mahoratining shakllanib borishi, rivojlanishi uchun zamin yaratashi.

-o'quvchilarni maktabdan tashkari ishlarga qiziqishiga qarab taqsimlay olishi.

-fan to'garaklarida bolalar qiziqishi, intilishi va salohiyatini hisobga olgan holda ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'lishi.

-qiziqarli intellektual o'yinlarni muntazam o'tkazib borishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" Konsepsiyasida "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yay ekan. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham aniq, qat'iy talablarni qo'ymoqda. Ta'lim-tarbiyani bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shunday ekan bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompitensiyasi alohida ahamiyatga ega.

Pedagoglik kasbini puxta egallagan va yaxshi o'qituvchi mutaxassisini kasbiy tayyorlashda oliy o'quv yurtlarida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Bu borada "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalariga alohida mas'uliyat yuklaydi. Shu sababli har tamonlama yetuk, salohiyati yuksak, komil, bilimdon, o'z kasbini sevuvchi, ma'naviy-axloqiy talablarga to'liq javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarinining imkoniyati va salohiyati juda katta. Ana shu imkoniyatlardan to'liq foydalanganimizdagina biz yoshlarni pedagogik faoliyatiga psixologik, uslubiy va mafkuraviy tamondan tayyorlay olamiz va ularga Vatanimiz kelajagi, farzandlarimiz taqdirini ishonib topshira olamiz.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz"- T, "O'zbekis" 2017 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichlarga ko'taramiz.-T , "O'zbekiston" NMIU-2018
3. O'zbekiston Respublikasi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" Konsepsiysi.-T, 2020 y.
4. Kenjayev Sh, Asatulloev A, Falsafa o'quv qo'llanma. T., - 2024, NIFMCHJ.
5. Kenjayev Sh. Yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni. Monografiya. T., - 2022 Innovatsion – Ziyo.
6. Kenjayev Sh. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar metodikasi. T., - 2024. Metodist nashriyoti.
7. Kenjayev Sh. Yoshlarni ma'maviy-axloqiy tarbiyalash muammolari. Monografiya. T., - 2022 Innovatsion – Ziyo.